

## Soliq konsepsiyasi ijrosi va tomorqadan foydalanish tanqidiy tahlil qilindi

---



**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 22 fevral kuni soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi tahlili hamda navbatdagi muhim vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.**

Soliq yukini kamaytirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir. Shu maqsadda o'tgan yili O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilingan edi. Yangi soliq tizimini joriy qilish bo'yicha respublika shtabi hamda hokimliklar huzurida hududiy shtablar tuzilib, joylarda tegishli tashkiliy va tushuntirish ishlari olib borildi. Natijada qo'shimcha qiymat solig'ini to'lashga o'tayotgan korxonalar soni 5 barobar oshdi.

Joriy yilning yanvar oyida byudjetga tushumlar bo'yicha prognoz barcha hududlarda bajarildi. Yanvar oyida inflyatsiya darajasi yillik hisobda 13 foizni tashkil etib, belgilangan prognoz ko'rsatkichdan oshmadi. Bu valyuta bozorini liberallashtirishdan keyingi davrdagi yillik inflyatsiyaning eng minimal ko'rsatkichidir. Bu esa, amalga joriy etilgan yangi soliq konsepsiyasi iqtisodiy va huquqiy jihatdan asosli ekanini ko'rsatadi.

Yig'ilishda soliq idoralari ayrim xodimlarining malakasi, kasb mas'uliyati talab darajasida emasligi, oqibatda jiddiy xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilayotgani qayd etildi.

Masalan, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarining ayrim tumanlarida umumbelgilangan soliq to'lash tizimiga o'tgan tadbirkorlik subyektlariga maslahat berish uchun soliq inspektorlari nomigagina biriktirilgan.

Yig'ilishda yangi soliq tizimini joriy etishda sustkashlikka yo'l qo'ygan ayrim viloyat hokimlarining birinchi o'rinbosarlari, tuman hokimlari va ularning o'rinbosarlariga intizomiy choralar ko'rildi.

Soliq va prokuratura idorasi xodimlari qulog'iga quyib olsin: bu yil yangi soliq tizimining tartib-qoidalari va hisob-kitoblari tadbirkorlar ongida to'liq shakllanmaguncha ularni jazolashga, jarimaga tortishga umuman yo'l qo'yilmaydi. Aksincha, ular tadbirkorlarga maslahatchi va ko'makchi bo'lib, soliqlarni aniq hisoblash va to'lashda to'g'ri yo'l ko'rsatishi kerak, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Soliq xodimlari malakasini oshirish, soliq to'lovchilarga hisobotlarni shakllantirish va hisob-fakturalarni to'ldirish tartibini o'rgatish masalalari muhokama qilindi.

Ayrim tadbirkorlar yangi soliq tizimini qo'llash bo'yicha yetarli bilimga ega emasligi tufayli tovarlarga asossiz ravishda qo'shimcha ustamalar hisoblash hollari uchramoqda. Bu iste'mol bozorida narx-navoga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Shu bois respublika shtabiga hududlarga chiqib, joylarda narx-navo oshishi sabablarini doimiy tahlil qilish, ularning asossiz o'sishining oldini olish bo'yicha qo'shimcha takliflar ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Yangi soliq tizimi bo'yicha yuzaga kelayotgan ko'plab savollarga javob topish uchun uchrashuvlar, ommaviy axborot vositalarida maxsus chiqishlar tashkil etish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Videoselektor yig'ilishida soliqlar to'lovini amalga oshirishda noqonuniy holatlar aniq misollar asosida muhokama qilindi. Yirik ishlab chiqaruvchilar, importyorlar va ulgurji savdo tashkilotlari tomonidan sotilayotgan tovarlar harakatini tahlil qilish, naqd pulsiz hisob-kitob qilish ko'lamini kengaytirish, buning uchun elektron hisob-faktura tizimini tezroq joriy etish zarurligi ta'kidlandi.

Soliq idoralariga joylardagi boqimanda qarzdorlikni undirish, byudjetga daromadlarning ichki zaxiralarni izlash bo'yicha tavsiyalar berildi. Jumladan, Davlat soliq qo'mitasi huzurida yirik soliq to'lovchilar va importyorlar bilan ishlaydigan hududlararo inspeksiya faoliyatini yo'lga qo'yish lozimligi qayd etildi.

Qanchalik murakkab bo'lmasin, boshlagan islohotlarimizni oxirigacha yetkazishimiz zarur. Lekin targ'ibot-tushuntirish ishlarini bahona qilib, o'rganishlarni tekshiruvga aylantirishga mutlaqo yo'l qo'yilmaydi. Halol tadbirkor doimo davlat himoyasida, mening himoyamda, dedi Prezidentimiz.

Yig'ilishda yana bir muhim masala – tomorqadan samarali foydalanish va bahorgi ekin ekish ishlari ham muhokama qilindi.

Xalqimiz azaldan rizq undirish, bog' yaratishning hadisini olgan. Bugungi kunda ko'pchilik o'z tomorqasidan samarali foydalanib, bir yilda 3 martagacha hosil olmoqda. Lekin, ba'zi joylarda tomorqaga ekin ekmaslik va qarovsiz tashlab qo'yish holatlari ham yo'q emas. Yurtimiz bo'yicha 328 mingta xonadondagi 20 ming gektar tomorqadan samarali foydalanilmayapti.

Aslida tomorqa rizq-ro'z, qo'shimcha daromad manbai, bandlikni, arzonchilikni ta'minlashning samarali yo'lidir. Odamlarning o'zida ham ekin ekish, daromad olish istagi bor. Lekin nima ekishni, urug', ko'chatni qayerdan olishni bilmaydi. Kelgusida "mahsulotni sota olamanmi", degan hadik ham yo'q emas.

Shu bois bu yil mart-aprel oylarida tomorqaga ekin ekish ishlari yangi tizimda, keng jamoatchilik ishtirokida tashkil qilinadi. Xalq qabulxonalari rahbarlari mahalla raislari bilan birga uyma-uy yurib, aholi talablari asosida ularga ko'mak beradi. Mahalliy byudjetlar zaxira jamg'armasidan 40-50 million so'mdan mablag' ajratilib, kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga bozorbop sabzavotlar urug'i, mevali daraxt va tok ko'chatlari yetkazib beriladi.

Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, "Mahalla" xayriya jamoat fondi salohiyatli fermerlar yordamida aholining foydalanilmayotgan tomorqalarini ekishga tayyorlash va bozorbop ekinlar ekishni tashkil qiladi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Bandlikka ko'maklashish jamg'armasidan tomorqasi bor ishsiz fuqarolarga issiqxonalar tashkil etish, urug'lik va ko'chat olish uchun eng kam ish haqining 10 barobarigacha miqdorida subsidiya ajratadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlarining birinchi o'rinbosarlari, tuman va shaharlarning 4 ta sektor rahbarlari har bir hududning o'ziga xos xususiyatini hisobga olib, "bir mahalla – bir mahsulot" tamoyili asosida har bir mahallani meva-sabzavot yetishtirish, kichik issiqxonalar tashkil qilish, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, quyonchilik, kurkachilik kabi yo'nalishlarga ixtisoslashtirish bo'yicha amaliy choralar ko'radi.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar bo'yicha mutasaddi rahbarlarning axboroti eshitildi.

**O'ZA**